

PRFFILAKTIKA INSPEKTORLARINING MA'MURIY-HUQUQIY FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH: BUYUK BRITANIYA TAJRIBASINING KONSEPTUAL MODELLARINI IMPLEMENTATSIYA QILISH MASALALARI

Vaxobjonov Dilmirod Dilshodjon o'g'li

IIV Akademiyasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati" kafedirasi o'qituvchisi.

O'razaliyev Bobur Sharof o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta'lim

3-o'quv kursi 320-guruh kursanti

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida ma'muriy javobgarlikka oid qonun normalarini qo'llashning metodologik asoslari tahlil qilinadi. Britaniya politsiyasining "Muammoga yo'naltirilgan politsiya" (POP) konsepsiyasi, xususan, SARA modeli va proaktiv profilaktika choralari tahlil qilinib, ularni O'zbekiston ichki ishlar organlari faoliyatiga tatbiq etishning huquqiy va amaliy istiqbollari ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *huquqbuzarliklar profilaktikasi, ma'muriy javobgarlik, SARA modeli, muammoga yo'naltirilgan politsiya (POP), proaktiv choralar, ichki ishlar organlari, Britaniya tajribasi, ma'muriy-huquqiy metodologiya.*

Аннотация: *В данной научной статье анализируются методологические основы применения норм законодательства об административной ответственности в сфере профилактики правонарушений. Проанализирована концепция британской полиции «Полиция, ориентированная на решение проблем» (POP), в частности модель "SARA" и меры проактивной профилактики, а также показаны правовые и практические перспективы их внедрения в деятельность органов внутренних дел Узбекистана.*

Ключевые слова: *профилактика правонарушений, административная ответственность, модель "SARA", полиция, ориентированная на проблемы (POP), проактивные меры, органы внутренних дел, британский опыт, административно-правовая методология.*

Annotation: *This scientific article analyzes the methodological basis for applying the norms of the law on administrative responsibility in the field of crime prevention. The concept of the British police "Problem-Oriented Police" (POP), in particular the SARA model and proactive preventive measures, is analyzed, and the legal and practical prospects for their implementation in the activities of the internal affairs bodies of Uzbekistan are shown.*

Keywords: *Crime prevention, administrative responsibility, Problem-Oriented Policing (POP), SARA model, proactive measures, internal affairs bodies, Uzbekistan law, British police experience, legal methodology..*

KIRISH

Ma'muriy amaliyotning zamonaviy tendensiyalari-Global miqyosda politsiya tizimlari "jazolash" funksiyasidan "ijtimoiy xizmat ko'rsatish va muammolarni hal qilish" (Community Policing) modeliga o'tmoqda.

Buyuk Britaniya bu borada 1829-yilda Robert Pil tomonidan asos solingan "Politsiya — bu xalq, xalq esa — bu politsiya" tamoyiliga tayanadi. Profilaktika inspektori faoliyatida ma'muriy javobgarlik chorasini qo'llash shunchaki jazolash emas, balki ijtimoiy barqarorlikni tiklash vositasi bo'lishi lozim. Bugungi kunda huquqbuzarliklar profilaktikasi va ma'muriy javobgarlik sohasi tubdan transformatsiya bo'lmoqda. An'anaviy ma'muriy amaliyot asosan sodir etilgan qonunbuzarlik uchun jazo qo'llashga (reaktiv munosabat) yo'naltirilgan edi. Zamonaviy tendensiya esa Britaniya politsiya tizimida shakllangan SARA (Scanning, Analysis, Response, Assessment) modeli kabi proaktiv usullarni talab etmoqda

ASOSIY QISM

Bugungi kunda Britaniya politsiyasida ma'muriy huquqbuzarliklar bilan ishlashda 1979-yilda German Goldshteyn tomonidan ilgari surilgan POP nazariyasi qo'llaniladi. Ushbu nazariya ma'muriy javobgarlikni qo'llashda quyidagi "Jinoyat tahlili uchburchagi" (Problem Analysis Triangle) metodiga tayanadi.

Xususan, Madisondagi Viskonsin universiteti professori German Goldshteyn tomonidan taklif etilgan muammoga yo'naltirilgan politsiya faoliyati (MHPF) politsiya faoliyatining strategiyasi bo'lib, u samarali javob berish strategiyalarini ishlab chiqish maqsadida muayyan jinoyatlar va huquqbuzarliklarni aniqlash va tahlil qilishni o'z ichiga oladi. PPPD politsiyadan jinoyatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan chuqur muammolarni aniqlash va bartaraf etishni talab qiladi. Goldshteyn bu strategiyani hodisaga yo'naltirilgan reaktiv "politsiya faoliyatining standart modeli"ni takomillashtirish sifatida taklif qildi

Huquqbuzar — bu jamiyatda o'rnatilgan qonun-qoidalarini qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan buzgan, buning natijasida davlat tomonidan himoya qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazgan shaxsdir. Har qanday huquqbuzarlikning zahirida insonning nafaqat harakati, balki lozim bo'lgan o'rinda ko'rsatmagan harakatsizligi ham yotishi mumkin.

Jabrlanuvchi (Victim): Jabrlanuvchining zaif jihatlarini. Ijtimoiy va demografik zaiflik bularga yosh omili, jins omili, kasbiy faoliyat omilini misol qilsak bo'ladi. Shaxsda Psixologik zaiflik ham mavjud. Jabrlanuvchining zaif jihatlarini o'rganishdan maqsad aybni qurbonga yuklash emas, balki odamlarga o'z xavfsizligini ta'minlash yo'llarini o'rgatish va jinoyatchilikning oldini olishdir.

Joy (Location): Huquqbuzarlikka imkon berayotgan muhit (masalan, yoritilmagan hudud, nazorat kamerasi yo'qligi). Huquqbuzarlikning sodir etilishida joy (lokatsiya) omili hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kriminologiyada bu tushuncha "jinoyat sodir etish uchun qulay muhit" deb yuritiladi. Ayrim hududlar o'zining texnik yoki ijtimoiy xususiyatlari tufayli huquqbuzarni harakatga undaydi va uning jinoyat ustida qo'lga tushish xavfini kamaytiradi.

Profilaktika inspektori o'z hududida ma'muriy normani qo'llashdan oldin SARA algoritmi bo'yicha harakat qilishi uning ish samaradorligini 40% ga oshiradi:

Scanning (Skaynerlash): Faqat bitta huquqbuzarlik emas, balki hududdagi o'xshash hodisalar zanjirini aniqlash.

Analysis (Tahlil): Nima uchun aynan ushbu mahallada ma'muriy huquqbuzarliklar yuqori? (Britaniyada bu bosqichda "Small Area Analysis" — kichik hudud tahlili qo'llaniladi).

Response (Javob choralari): Britaniya tajribasida bu yerda "Discretionary Powers" (tanlash huquqi) ishga tushadi. Agar shaxs birinchi marta kichik huquqbuzarlik sodir etsa, unga nisbatan ma'muriy bayonnoma o'rniga "Community Resolution" (Jamoatchilik kelishuvi) qo'llaniladi sababi bu uncha og'ir bo'lmagan huquqbuzarliklar sodir etilganda, rasmiy sud jarayonlarisiz, tomonlarning o'zaro kelishuvi orqali masalani hal etish usulidir. Ushbu mexanizm zamonaviy huquqiy tizimlarda "tiklovchi odil sudlov" (restorative justice) tamoyiliga asoslanadi.

Assessment (Baholash): Qo'llanilgan choraning uzoq muddatli natijasini o'rganish. Bu huquqbuzarlikning oldini olish uchun ko'rilgan profilaktik chora-tadbirlar qanchalik samarali bo'lganini tahlil qilish va ularning uzoq muddatli ta'sirini o'rganish bosqichidir. Bu jarayon shunchaki natijani qayd etish emas, balki kelgusidagi strategiyalarni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ma'muriy javobgarlikni raqamlashtirish quydagi ikki turga bo'linadi bular Body-Worn Video (BWV) va PACE (Police and Criminal Evidence) Buyuk Britaniyadagi PACE (Police and Criminal Evidence Act 1984) qonuni politsiya va profilaktika xodimlari uchun "oltin standart" hisoblanadi. Body-Worn Video (BWV) va Dalillar zanjiri: Britaniyada inspektor kamerasi tasvirni "Cloud" (bulutli) serverga yuklaydi va u yerda ma'lumotni tahrirlab bo'lmaydi. Bu O'zbekistondagi "guvoh topish" muammosini hal qiladi. Bu tizm umumiy bazani tashkil etib, boshqa shaxslar tomonidan dalillarni yo'qolishini oldini oladi hamda Digital Cautions elektron ogohlantirish tizimi ham mavjud bu orqali huquqbuzarning yagona bazasida "sariq karta" paydo bo'ladi. Bu keyingi bosqichda unga nisbatan qat'iyroq ma'muriy jazo qo'llash uchun asos bo'ladi. Bu profilaktika inspektorlarining faoliyatini samaradoligini oshiradi.

Restorativ adolat bu jazolashdan tiklashga qaratilgan tizm Britaniya modelida ma'muriy javobgarlikni qo'llashda "Restorative Justice" (Tiklovchi odil sudlov) keng qo'llaniladi, buning o'ziga xosligi profilaktika inspektori huquqbuzarga jarima solish o'rniga, unga zararni ixtiyoriy tuzatish (masalan, bo'yalgan devorni qayta bo'yash, buzilgan ashyoni tuzatish) imkonini beradi. Agar shart bajarilsa, ma'muriy ish qo'zg'atilmaydi. Bu esa davlat xarajatlarini tejaydi va aholining politsiyaga nisbatan ijobiy qarashini shakllantiradi. Britaniya modeli "jazo — yagona chora emas" degan g'oyani ilgari suradi. U insonni jamiyatdan ajratish emas, balki xatoni tuzatish orqali jamiyatga qaytarishga xizmat qiladi.

TAKLIFLAR

O'zbekistonda qo'llash uchun ilmiy-amaliy takliflar beradigan bo'lsam "Ma'muriy chalg'itish" (Diversion) institutini joriy etish O'zbekiston Respublikasi ma'muriy

javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 21-moddasini (Kichik ahamiyatli huquqbuzarlik) kengaytirgan holda, inspektorga "shartli ogohlantirish" vakolatini berish hamda bu bo'yicha yagona elektron bazani yaratish lozim. SARA Metodologiyasini o'quv dasturlariga kiritish IIV Akademiyasida profilaktika inspektorlarini tayyorlashda Britaniyaning ushbu tahliliy modelini asosiy metodika sifatida o'qitish. Shuningdek video-dalillarning huquqiy maqomi ni oshirish, MJtKga videokamera tasvirlarini xolislar ishtirokisiz ham mustaqil dalil sifatida tan olish bo'yicha o'zgartish kiritish. Mahallabay tahlil tizimini ham joriy etish. Inspektorning ish samaradorligini "bayonnomalar soni" bilan emas, balki u yashayotgan hududning "Kriminogen xaritasi" (Crime Mapping) yaxshilanishi bilan o'lchash.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining ma'muriy-huquqiy faoliyatini takomillashtirishda Buyuk Britaniyaning "Muammoga yo'naltirilgan politsiya" (POP) va SARA modeli kabi konseptual modellarini implementatsiya qilish bugungi kunning obyektiv zaruriyatidir. An'anaviy "reaktiv" (hodisadan so'ng jazolash) tizimidan "proaktiv" (muammoning ildizini tahlil qilish va oldini olish) tizimiga o'tish huquqbuzarliklar profilaktikasining sifat jihatdan yangi bosqichini belgilab beradi. Olingan ilmiy xulosalarga ko'ra, Britaniya tajribasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish quyidagi muhim ijobiy natijalarga olib keladi shuningdek metodologik yondashuvning o'zgarishi SARA algoritmi va "Jinoyat tahlili uchburchagi" (huquqbuzar, jabrlanuvchi, joy) metodikasining joriy etilishi profilaktika inspektoriga vaziyatni yuzaki emas, balki tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa ish samaradorligini o'rtacha 40% ga oshirishga xizmat qiladi. Insonparvarlik va ijtimoiy xizmat: "Restorative Justice" (Tiklovchi odil sudlov) va "Community Resolution" (Jamoatchilik kelishuvi) institutlarining tatbiq etilishi profilaktika inspektorini shunchaki jazolovchi subyektdan, jamiyatdagi nizolarni hal qiluvchi va ijtimoiy barqarorlikni tiklovchi koordinatorga aylantiradi.

Bu o'z navbatida aholining ichki ishlar organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Raqamli nazorat va shaffoflik esa Body-Worn Video (BWV) va PACE standartlari asosida dalillar bazasini raqamlashtirish korrupsion omillarni cheklaydi hamda "xolislar ishtiroki" kabi ortiqcha byurokratik jarayonlarni qisqartirib, ma'muriy amaliyotni optimallashtiradi. Baholash tizimidagi islohot kelgusida inspektorlar faoliyatini "bayonnomalar soni" (miqdor) bilan emas, balki hududning "Kriminogen xaritasi" (sifat) va jinoyatning barqaror kamayishi bilan baholashga o'tish lozimligi isbotlandi.

Amaliy taklif sifatida, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga "shartli ogohlantirish" va "ma'muriy chalg'itish" (diversion) normalarini kiritish, shuningdek, IIV Akademiyasi o'quv dasturlariga ushbu xalqaro tahliliy modellarni integratsiya qilish taklif etiladi. Ushbu yangiliklar huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini "jazolash apparati"dan "ijtimoiy muammolarni hal qiluvchi tizim"ga transformatsiya qilishning huquqiy poydevori bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Goldstein, H. (1990). Problem-Oriented Policing. McGraw-Hill Education.(https://popcenter.asu.edu/sites/g/files/litvpz3631/files/2025-06/Goldstein_Book.pdf)
2. Police and Criminal Evidence Act 1984 (PACE), Her Majesty's Stationery Office (HMSO).(<https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1984/60/contents>)
3. Braga, A. A. (2008). Problem-Oriented Policing and Crime Prevention. CriminalJusticePress.(https://popcenter.asu.edu/sites/g/files/litvpz3631/files/braga_pop_intro_2.pdf)
4. Атажанов, Ў. М. (2025). ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ ТИЗИМИДА ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ ВАЗИФА ВА ФУНКЦИЯЛАРИНИ НАЗАРИЙ АСОСЛАШ, КОНЦЕПТУАЛ МОДЕЛЬ ВА ИМПЛЕМЕНТАЦИЯ СТРАТЕГИЯЛАРИ. Научный Импульс, 3(33), 146-156.
5. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasito'g'risida"gi Qonuni. (<https://lex.uz/uz/actinfo/respondents/-20596>)
6. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentiyabrdagi Mamuriy Javobgarlik To'g'risidagi Kodeksi.(<https://lex.uz/docs/97664>)
7. Ismoilov, I., Ziyodullayev, M. (2021). Ma'muriy-huquqiy faoliyat. IIV Akademiyasi nashriyoti.
8. Атажанов, Ў. М. (2025). ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ ХИЗМАТЛАРИ ТОМОНИДАН ПРОФИЛАКТИК ЧОРА-ТАДБИРЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Новости образования: исследование в XXI веке, 4(40), 10-17.
9. Атажанов, Ў. М. (2025). ХОТИН-ҚИЗЛАРГА НИСБАТАН ТАЗЙИҚ ВА ЗЎРАВОНЛИКНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ БЎЙИЧА ҲУҚУҚИЙ МЕХАНИЗМЛАР ТАҲЛИЛИ. Новости образования: исследование в XXI веке, 4(40), 18-24.
10. Атажанов Ў. М., Найимов Х. Ж. ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ МАХСУС ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ //Научный Импульс. – 2025. – Т. 4. – №. 39. – С. 703-709.
11. Атажанов Ў. М. и др. ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ ХИЗМАТЛАРИ ТОМОНИДАН ПРОФИЛАКТИК ЧОРА-ТАДБИРЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2025. – Т. 4. – №. 40. – С. 10-17.
12. Мустофақулов, Бобур Асрор Ўғли, and Авазбек Акрамжон Ўғли Турғунпўлатов. "ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИ УСТИДАН ЖАМОАТЧИЛИК, ПАРЛАМЕНТ ВА ДЕПУТАТЛИК НАЗОРАТИ." Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies 2.2-2 (2025): 83-87.
13. Адхамов, З. А. (2025). БУХОРО ВИЛОЯТИДА ИЛГАРИ СУДЛАНГАН ШАХСЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ КРИМИНОЛОГИК ТАВСИФИ ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЧОРАЛАРИ:

МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР ТАҲЛИЛИ. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(6), 85-89.

14. Тиллаходжаев, Б., & Рахмонжонов, С. (2025). ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИДА НАЗОРАТ СУБЪЕКТЛАРИНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ ВА НАЗОРАТ ҚИЛИШНИНГ АҲАМИЯТИ. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 2(6), 79-83.